


2024- yilning yanvar - mart oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi – 3653,3 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 3523,0 mlrd. so'mni (103,9 %), o'rmon xo'jaligi – 118,9 mlrd. so'mni (100,6 %), baliqchilik xo'jaligi – 11,4 mlrd. so'mni (76,6 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 8,1 % ni tashkil etdi.

**3653,3****Qashqadaryo viloyati bo'yicha****3523,0****Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar****118,9****O'rmon xo'jaligi****11,4****Baliqchilik**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2024- yilning yanvar - mart yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 103,9 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 100,6 % i - o'rmon xo'jaligi, 76,6 % i – baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi



2024- yilning yanvar- mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Kitob (321,3 mlrd. so'm) Chiroqchi (318,9 mlrd. so'm) va Koson (312,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qarshi shahri (72,4 mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (18,7 mlrd. so'm) va Ko'kdala tumanini (182,9 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (103,6 %) yuqori o'sish sur'atlari Chiroqchi (107,6%), Shahrisabz shahri (106,9 %), Dehqonobod (106,8%), Ko'kdala (106,0%), Mirishkor (104,9 %), Yakkabog' (104,7 %), Koson (103,7%), kuzatildi. Shahrisabz (100,8 %), Qarshi shahri (100,3 %), Qarshi (100,8 %), va Qamashi (101,7 %), tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024- yilning yanvar- mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3475,9 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 202,1 mlrd. so'mni (104,2 %), chorvachilik mahsulotlari – 3273,8 mlrd. so'mni (103,7 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




**Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 89,1 % i - Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,0 % i - fermer xo'jaliklariga, 2,9 % i - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2024-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Nishon tumanida (13,0%), Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Shahrisabz shahrida (99,4%), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qarshi shahrida (17,2%) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Shahrisabz shahrida (0,2 %), Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Nishon tumanida va Qarshi shahrida (82,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Qarshi tumanida (0,1 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2024- yilning yanvar- mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 202,1 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 5,8 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi


- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3,1 ming t. sabzavotlar (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 4,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 89,1 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Qashqadaryo viloyati bo'yicha
sabzavotlar
yetishtirish hajmi, t.**




Chorvachilik



2024- yilning yanvar- mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 3273,8 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 94,2 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.




2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 45,9 ming t. go'sht (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 3,5 % ga ko'p), 151,9 ming t. sut (4,3 % ga ko'p), 99,8 mln.dona tuxum (8,0 % ga ko'p), 66,0 ming dona qora ko'l teri (6,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi va 464,5 t. baliq (0,5 % ga ko'p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 45,9 ming t. go'sht (2023 yilning yanvar- martiga nisbatan 3,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 93,7 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 151,9 ming t. sut (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 4,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 93,0 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha sut yetishtirish hajmi, t.




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 99,8 mln. dona tuxum (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 8,0 % ga ko'p ishlab chiqarildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 60,5 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Qashqadaryo viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona**




Baliq


Hajmi,t.



O'sish sur'ati




Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 464,5 tonna (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 0,5 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 65,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Qashqadaryo viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,2 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 8,1 % i fermer xo'jaliklariga, 86,0 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 14,4 % i fermer xo'jaliklariga, 81,0 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 4,7 % i fermer xo'jaliklariga, 73,7 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 21,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1725,8 mingtaga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 44,8 ming boshga (2,7 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



**Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,2 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Qashqadaryo viloyati
bo'yicha yirik shoxli
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 565,6 mingtaga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 17,7 ming boshga (3,2 %) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




**Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 91,4 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh





2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 4 939,1 mingtaga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni 73,6 mingtaga (1,1 %) ko'paydi.


Qo'y va echkilar

Soni, ming bosh

O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 86,0 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Qashqadaryo viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 35,6 mingtaga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 1832 boshga (5,4 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar, xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 81,0 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.



**Qashqadaryo viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh**




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6086,0 mingtaga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 403,0 ming boshga (7,1 %) kamaydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh




O'sish sur'ati




Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 73,7 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 75-221-34-46